



G'alla yetishtirishga ixtisoslashgan, yomg'irlatib
sug'orish tizimi bilan ta'minlangan va ihota
daraxtzorlari bilan himoyalangan fermer

xo'jaligini

tashkil etishda

**iqlim o'zgarishi oqibatlari
hisobga olingan biznes-reja**

(ANDOZA)

Ismi sharifi: _____

Tug'ilgan kuni: _____

Manzili: _____

Telefon: _____

Elektron pochta manzili: _____

“Yashil” biznes-reja tuzishning mazkur andozasi Global yashil o’sish instituti (GGGI) tomonidan Koreya Xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) tomonidan moliyalashtirilib, GGGI moliyalashtiruvchi sherik va amalga oshiruvchi bo’lgan “Orol dengizi inqirozi oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan Qoraqalpog’iston Respublikasi uchun yashil reabilitatsiya investitsiya loyihasi” (Orol dengizi GRIP loyihasi) doirasida ishlab chiqilgan.



VA

German Sparkassenstiftung (DSIK) fondi GGGI bilan DSIK o’rtasida 27-iyun kuni imzolangan “O‘zbekiston Respublikasida “yashil” tadbirkorlik bo‘yicha o‘qitish va agrobiznes tarmog‘ini rivojlantirish” to‘g‘risidagi o‘zaro anglashuv memorandumini doirasida.



HAMKORLIGIDA

MINNATDORLIK:

Mualliflar: Xuan Xose Robalino i Sara Appelt

Misol tariqasida keltirilgan ma’lumotlar O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tgan “A Master Fruit” MCHJ konsalting kompaniyasi tomonidan Global yashil o’sish instituti va “A Master Fruit” MCHJ (100006691) o‘rtasidagi shartnoma asosida to‘plangan.

Taqrizchilar:

Matias Vangler, German Sparkassenstiftung fondining O‘zbekistondagi vakili.

Rasmlar: Azimova Nazokatoy tomonidan taqdim etilgan

YURIDIK OGOHLANTIRISH:

Global yashil o’sish instituti va German Sparkassenstiftung fondi ushbu hujjat yoki unda keltirilgan ma’lumotlarining to‘g‘riligi, to‘liqligi yoki ulardan foydalanish bo‘yicha hech qanday aniq yoki nazarda tutilgan kafolat bermaydi yoki hech qanday yuridik javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

1. Umumiy qisqacha ma'lumot

Taklif etilayotgan biznes g'oya fermer xo'jaligida mahsuldorlikni oshirish, suv sarfini kamaytirish va atrof-muhit sharoitlarini, shu jumladan havo sifati hamda foydali hayvon va hasharotlar uchun "yashil" maydonlar holatini yaxshilash, boshqacha qilib aytganda, uglerodni ajratish va changlatish kabi ekotizim xizmatlarini qo'llab-quvvatlash uchun tomchilatib sug'orish usulida sug'oriladigan va ihota daraxtzorlari bilan himoyalangan bug'doy yetishtirishdan iborat

O'zbekistonda bug'doy yetishtirishda yomg'rlatib sug'orish tizimlarini joriy etishning ta'sirini baholash doirasida unumdorligi past tuproqlarda hosildorlikning 25% dan 300% gacha ortgani ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, shamoldan himoya qiladigan daraxtzorlarni barpo etish ekinlar hosildorligi va sifati ortishini, bu esa, o'z navbatida, daromad hajmining ortishiga olib kelishini ko'rsatdi. Himoyalovchi daraxtlar optimal holatda barpo etilganda va yakuniy balandligiga yetgandan keyin hosildorlik 10% gacha oshgani to'g'risida hisobot qilingan.

Fermer xo'jaligimning yer maydoni _____ (masalan, 18 gektar) tashkil etishini hisobga olgan holda, jami bug'doy ishlab chiqarish hajmi _____ (masalan, bug'doy hosili 3 tonna / ga * 18 ga = 54 tonna) deb hisoblayman. Bug'doyning bozordagi narxi _____ (masalan, O'zbekistonning 2022-yildagi bug'doy narxi bir tonna uchun 205,38 AQSH dollari), bo'lganini hisobga olgan holda, yillik daromad taxminan _____ (masalan, 54 tonna * 205,38 AQSH dollari /tonna = 11 070 AQSH dollari) ni tashkil etadi. _____ (tashrif / o'rganish) dan (masalan, sug'orish usulini tatbiq etgan qo'shni fermer xo'jaligiga tashrif buyurganimdan) so'ng o'z fermamda tizimni sinab ko'rishga qiziqaman. o'z fermer xo'jaligimda tizimni sinovdan o'tkazib ko'rishga qiziqyapman. Ko'rsatilgan taxminiy narxni _____ (masalan, gektariga 4000 AQSH dollari) hisobga olgan holda, fermer xo'jaligimning _____ (masalan, bir gektar) maydoniga ushbu tizimga investitsiya kiritishga qiziqishim bor.

Bundan tashqari, fermer xo'jaligimning _____ (masalan, 18 ga) yer maydonini himoyalash uchun _____ (mart va aprel oylarida Qoraqalpog'istonda shamol tezligi 5 m/s ekanini hisobga olgan holda, qator oraligi 2 m qilib ekilgan Qoratol daraxtlari yetilib, balandligi 15 m bo'lgandan so'ng, hosilga zarar yetkazadigan tepaga qarab esadigan shamolga qarshi taxminan 60 m va pastga qarab esadigan shamolga qarshi 300 m himoyani ta'minlaydi) daraxtlaridan iborat _____ (masalan, shimoldan esuvchi shamollarga perpendikulyar bo'lgan 500 metr uzunlikdagi chiziqli ihota daraxtzorlari) barpo etishga qaror qildim (yoki mutaxassis/maslahatchi menga taklif qildi). Ekiladigan daraxtlarga investitsiyalar _____ (masalan, 500 m daraxt / 2 m masofa = 250 daraxt * 0,18 AQSH dollari / daraxt = 45 AQSH dollari) ni tashkil etadi.

_____ da (masalan, Kegeyli tumani) faoliyat yurituvchi fermer sifatida nafaqat mening, balki qo'shnilarimning fermer xo'jaliklariga ham ta'sir qiladigan chang bo'ronlari ko'payganini va sug'orish uchun mavjud suv miqdorining kamayganini kuzatyapman. Men _____ (masalan, so'nggi 15 yil) dan buyon fermerlik bilan shug'ullanaman va fermer xo'jaligimda ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish hamda fermer xo'jaligimning atrof-muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini izlayapman.

2. Biznes-g'oya

2.1. "Yashil" biznes-modeli

"Yashil" biznes modeli yomg'ratib sug'orish tizimiga ega va ekotizim xizmatlarini yaratish uchun ihota daraxtzorlari bilan himoyalangan bug'doy yetishtirishdan iborat bo'lib, bu - fermer xo'jaligimdagi mahsuldorlikka va uning atrof-muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda vazifam ishchi kuchi va texnikadan foydalangan holda xomashyo manbalarini topish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, shu bilan birga, yomg'ratib sug'orish tizimini hamda shamoldan himoyalash maqsadida ekilgan daraxtlarni parvarish qilish va to'g'ri boshqarishdan iborat bo'ladi.

Ushbu vazifalar doirasida yomg'ratib sug'orish tizimi bo'lgan va bo'lmagan holatda suv iste'moli, shuningdek, yetilgan daraxtlarning uglerod sekvestratsiyasiga qo'shadigan hissasi hisoblab chiqiladi. Hisoblangan suv iste'molining kamayishi va uglerod sekvestratsiyasi hajmi mijozlarim va tegishli davlat muassasalariga fermer xo'jaligining iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatishdagi hissasi haqida ma'lumot berishga xizmat qiladi.

Yomg'ratib sug'orish tizimini joriy etish va ihota daraxtzorlarini barpo etish ekinlar hosildorligi va sifatini oshirish, shu bilan birga ta'minot barqarorligiga erishish hamda mintaqada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali mijozlarimga ham afzalliklar keltiradi.

Bundan tashqari, to'liq stavkada ishlaydigan va mavsumiy xodimlarimni fermer xo'jaligimda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlariga hissa qo'shadigan barqaror biznes faoliyatimga hissa qo'shadigan xodimlar sifatida ro'yxatdan o'tkazaman. Xodimlarni rasmiy ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomili ularga ijtimoiy ta'minot xizmatlaridan foydalanish imkonini berib, mahallamdagi ijtimoiy tuzilmalar va ijtimoiy ta'minot tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Faoliyatim ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni aks ettirishi men uchun juda muhim.

3. Shaxsiy malaka

3.1. Kasbiy malaka

(MISOL) O'rta maktabni tugatgandan so'ng 2 yil qishloq xo'jaligi kasb-hunar ta'limi maktabida o'qidim. O'tgan 15 yil davomida fermerlik bilan shug'ullanar ekanman, fermer xo'jaligimni boshqarishni takomillashtirish, shuningdek, qarorlar qabul qilish jarayonini yaxshilash uchun biznes amaliyotlarimni qayd etib borishga qaratilgan qishloq xo'jaligi sohasidagi texnik seminarlarda qatnashdim. Men ishtirok etgan oxirgi seminar DSIK tomonidan tashkil etilgan bo'lib, unda men o'z biznesimni qanday yuritish, biznes-rejani qay tarzda ishlab chiqish va banklar bilan qay tarzda muomala qilish to'g'risida bilib oldim.

3.2. Tadbirkorlik malakasi

(MISOL) Ishimni puxta bajarishga bo'lgan doimiy intilishim fermer xo'jaligimda mahsuldorlikni oshirish, oilamni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, men va qo'shnilarim uchun ishlab chiqarish amaliyotimizni uzoq muddatli istiqbolda davom ettirishimizga imkon beradigan qulay muhit yaratish istagim bilan hamohang

Ota-onamga bug'doy yetishtirishda yordam berish asnosida, yoshligimdan fermer xo'jaligining kundalik hayoti haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lganman. So'nggi 15 yil davomida orttirgan texnik bilimlarim va ish tajribamga tayangan holda, fermer xo'jaligimda ishlab chiqarish jarayonini atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan tarzda takomillashtirishga intildim va xodimlarim farovonligini oshirishga yordam beradigan yechimlarni izladim.

Fermer xo'jaligining rahbari sifatida yildan-yilga o'rik yetishtirish, urug'lik, o'g'it kabi zarur ishlab chiqarish resurslarini xarid qilish, yerni tayyorlash, ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish masalalari uchun mas'ul bo'ldim. Bu tajriba menga fermer xo'jaligini to'g'ri boshqarish va unumdorlikni yanada oshirishga yordam beradigan yechimlarni izlash zarurligini tushunishga imkon berdi.

3.3. Iqlim o'zgarishi oqibatlarini hisobga olingan biznes modelini joriy etishga rag'batlantirish

(MISOL) Yaqinda o'quv mashg'ulotida qatnashib, unda suvni tejash texnologiyalari hamda fermer xo'jaligi atrofida daraxtzorlar barpo etishning ishlab chiqarish shamoldan himoyalash va mintaqamdagi atrof-muhit sharoitlarini yaxshilash uchun qo'shimcha afzalliklari to'g'risida bilim oldim. Bundan tashqari, fermer xo'jaligimning iqlim o'zgarishi oldidagi zaifligini va uzoq muddatli istiqbolda dehqonchilikni davom ettirish uchun fermer xo'jaligimning moslashuvchanlik qobiliyatini yaxshilash uchun hozirdanoq chora ko'rish zarurligini tushunib yetdim. Bu menga mahalliy ish beruvchi sifatida tabiat oldidagi, shuningdek, xodimlarim va ularning oilalari oldidagi mas'uliyatimni anglab yetishga turtki berdi

Fermer xo'jaligimda uzoq muddatli ishlab chiqarishni ta'minlash va daromad olish imkoniyatiga ega bo'lish men uchun muhim. Shu sababli, o'z fermer xo'jaligimda ishlab chiqarish resurslarining samaradorligini oshirish va fermer xo'jaligining uzoq muddatli istiqboldagi hosildorligini ta'minlash choralari qidirdim. Fermer xo'jaligim uchun mos yechimlar izlash asnosida ayrim yechimlar nafaqat mening fermer xo'jaligimga, balki qo'shni fermer xo'jaliklariga ham, jamiyatimizga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini tushunib yetdim. Shu bois o'zimning va atrofimdagi odamlarning farovon kelajagini ta'minlashga yordam beradigan sa'y-harakatlarni amalga oshirishga intilaman.

4. Bozor

4.1. Bozor hajmi

(MISOL) APK INFORM onlayn manbasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston bugungi kunda Markaziy Osiyodagi eng yirik bug'doy iste'molchisi bo'lib, 2023-yilda ichki ichte'mol hajmi taxminan 8.5 million bo'lishi, biroq mahalliy ishlab chiqarish mahalliy iste'molning atigi 78 foizini qoplashi kutilmoqda.

Cyberleninka saytidagi «Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish orqali uning iqtisodiy samaradorligini oshirish» deb nomlangan maqolaga ko'ra, Qoraqalpog'istonda bug'doy yetishtirish uchun qariyb 85 767 gektar yer maydoni ajratilgan. Mintaqadagi haqiqiy hosildorlik o'simlik o'sishining muhim bosqichlaridagi suv ta'minoti, boshqaruv, tuproq unumdorligi tasnifi va boshqa omillarga qarab, gektariga 0,5 dan 3 tonnagacha o'zgarib turadi. Yuqori hosildorlikni hisobga oladigan bo'lsak, Qoraqalpog'istonda jami bug'doy yetishtirish 257,3 ming tonnani tashkil etadi. Boshqa tomondan, O'zbekistonda aholi jon boshiga bug'doy iste'moli yiliga 245 kg ni tashkil qiladi. Qoraqalpog'iston aholisi soni 2 millionga yaqinligini hisobga olsak, respublikada bug'doy iste'molining taxminiy hisob-kitoblari 2023-yilda taxminan 489,9 ming tonna bug'doy yetishtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu raqamlarni hisobga oladigan bo'lsak, mahalliy ishlab chiqarish respublikadagi taxminiy iste'molning atigi 53 foizini qoplaydi, bu esa yillik ehtiyojini qoplash uchun bug'doy import qilishi ehtiyojini keltirib chiqaradi.

4.2. Bozor rivojlanishi /tendensiyalar

(MISOL) O'zbekiston bug'doyni sof import qiluvchi hisoblanadi. 2011-yildan 2020-yilgacha bo'lgan o'n yillikda O'zbekiston uchun bug'doy savdosidagi defitsit 64 million dollardan 588 million dollargacha o'sdi. Global miqyosda geosiyosiy va iqlim hodisalari bug'doy yetishtirish va uning narxiga ta'sir qilib, O'zbekiston narxlarning keskin o'zgarishi oldida zaifligini ochib berdi. Masalan, Ukrainadagi mojarolar O'zbekistonda non narxining 75 foizga oshishiga olib keldi.

Narxlar masalasiga kelsak, O'zbekistonda bug'doyning ulgurji narxi 2023-yilda bir tonna uchun 190 dan 210 dollargacha bo'lishi kutilib, bu xalqaro narxlardan past. Talab masalasiga kelsak, iste'molning doimiy o'sishi va hukumatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlari mahalliy bug'doy ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish talabini qo'ymoqda.

4.3. Bozordagi xavf-xatarlar

(MISOL) Hosildorlikni oshirish maqsadida qo'shnilarim sintetik o'g'itlarni haddan tashqari ko'p qo'llab, ishlab chiqarish hajmini oshirishning qisqa muddatli choralariga murojaat qiladi. Biroq men O'zbekiston uchun maqbul qishloq xo'jaligi amaliyoti to'g'risidagi qo'llanma asosida turli chora-tadbirlarni tatbiq etishni, shu jumladan fermer xo'jaligimga ijobiy ta'sir ko'rsatishi uchun ko'proq vaqt talab qiladigan daraxtlarni ekishni tanladim. Shu bois qisqa muddatli istiqbolda iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha qo'shnilarimdan ortda qolishim mumkin.

Yana bir xatar - bu uzoq muddatli istiqbolda tatbiq etayotgan amaliyotlarim, xususan suvni tejash va uglerod sekvestratsiyasini oshirishga qaratilgan amaliyotlarimning ijobiy ta'siri xaridorlarim va davlat muassasalari uchun qiziq bo'lmasligi. Biroq global miqyosdagi va O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sektorini rivojlantirish hamda iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan kun tartibini hisobga olgan holda, hozirdanoq tegishli choralarni ko'rish, shuningdek, ularning foyda va afzalliklarini ilgari surish yaqin kelajakda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bundan tashqari, faoliyatimni ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlariga muvofiqlashtirish orqali xalqaro donor tashkilotlardan beg'araz moliyalashtirish, texnik yordam va boshqa imtiyozlarni jalb qilishim mumkin.

4-BO'LIM IZOH – Ma'lumotlarning potensial manbai:

O'zbekiston uchun

- Qishloq xo'jaligi tarmog'i statistikasi – <https://stat.uz/en/official-statistics/agriculture>
- Mahsulotlar narxlari va yangiliklar - <https://agromart.uz/en> (Agromart ilovasi)

Qoraqalpog'iston uchun

- Qishloq xo'jaligi tarmog'i statistikasi – <https://stat.uz/en/official-statistics/agriculture>
- Hududiy statistika - <https://karakalpakstan.uz/en/page/show/1>
- Mahsulotlar narxlari, axborot materiallari va yangiliklar - <https://greenaral.uz/en> (Jasilawil ilovasi)

5. Mijozlar

5.1. Faoliyat qamrovi

(MISOL) Fermer xo'jaligim Qoraqalpog'iston Respublikasining Kegeyli tumani, Kazanketken shaharchasi shimoli-g'arbida joylashgan. Uning umumiy maydoni 18 ga, sug'orish uchun asosiy kanal suvidan foydalanish imkoniyati mavjud, shuningdek xo'jalik faoliyatiga 5 m/s tezlikdagi shamol ta'sir qiladi.

5.2. Maqsadli guruh

(MISOL) Qoraqalpog'istonda bug'doy yetishtirish bo'yicha "Don mahsulotlari" davlat aksiyadorlik jamiyati yoki asosan kichik fermerlar bilan ishlaydigan agroklastlar bilan shartnoma tuzish mumkin. Ikkinchisi mavsum boshida konsignatsiya bo'yicha kreditlar va ishlab chiqarish resurslarini taqdim etadi.

5.3. Mijozlar ehtiyojlari va ular uchun mavjud bo'lgan foyda va afzalliklar

(MISOL) Hukumat respublikadagi eng yirik bug'doy xaridoridir. Chorvachilik fermalari ham qishloq agregatorlari orqali yoki bozordan ozuqa uchun muayyan miqdorda bug'doy sotib oladi. Bozorlardagi ehtiyoj masalasiga kelsak, iste'molchilar talablarini qondirish uchun sifatli va xavfsiz ishlab chiqarilgan mahsulotlarga talab yuqori. Afsuski, ioriy mahalliy ishlab chiqarish sifati past va haimi cheklangan. Ta'minot zanjiri bo'ylab xavfsizlik va sifatga doir aniq standartlar mavjud emasligi mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxining pasayishiga olib keladi.

6. Raqobat tahlili

6.1. Dastlabki mulohazalar

(MISOL) Keyingi bo'limda mendan 10 km radiusda bug'doy yetishtirish bilan shug'ullanadigan mahalliy raqobatchilarni aniqladim. Mintaqada quyida keltirilgan 3 ta fermer xo'jaligidan tashqari bug'doy

yetishtirish bilan shug'ullanadigan ko'plab kichik fermer xo'jaliklari ham mavjud. Biroz farq bo'lishi mumkinligini hisobga olganda, ularning aksariyati bir xil turdagi faoliyat bilan shug'ullanadi.

6.2. Birinchi raqobatchi

(MISOL) Bug'doy yetishtirish bilan shug'ullanadigan, 10 ga yer maydoniga ega va sug'orish uchun asosiy kanal suvidan cheklangan foydalanish imkoniyatiga ega fermer xo'jaligi.

6.3. Ikkinchi raqobatchi

(MISOL) Bug'doy yetishtirish bilan shug'ullanadigan, 5 ga yer maydoniga ega va sug'orish uchun ikkinchi darajali kanal suvidan cheklangan foydalanish imkoniyatiga ega fermer xo'jaligi.

6.4. Uchinchi raqobatchi

(MISOL) O'n gektar yer maydoniga ega hamda sug'orish uchun birlamchi kanaldan suv olish imkoniyati bo'lgan bug'doy fermer xo'jaligi.

7. Savdo va aloqa

(MISOL) Mintaqada bug'doy yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari o'rtasida farq kam. Shuning uchun, men yomg'ratib sug'orishni joriy etish va ihota daraxtzorlarini barpo qilish, shuningdek, suvni tejash va uglerod uglerod sekvestratsiyasi to'g'risida hisobot berishni atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan fermer xo'jaligi ekanimni namoyish qilishni boshqalardan ajralib turishning yaxshi strategiyasi deb hisoblayman. Hozirgi kunda Qoraqalpog'istonda, masalan, Jasilawil kabi onlayn platformalar mavjud bo'lib, ularda boshqa fermerlarni chora-tadbirlarni amalga oshirishga undash, shuningdek, fermerlarni o'z fermer xo'jaliklarida mahsuldorlikni yanada oshirishda qo'llab-quvvatlaydigan dasturlar e'tiborini jalb qilish maqsadida fermer xo'jaligimdagi tajribamni namoyish eta olaman. Ijobiy o'zgarishlarga hissa qo'shishga intilishimni namoyish etish orqali men fermer xo'jaligimdagi usullarni takomillashtirish uchun qo'shimcha "yashil" texnologiyalar va moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritishim mumkin.

8. Jarayonlar va tashkilot

8.1. Asosiy jarayonlar

(MISOL) Fermer xo'jaligimning mas'ul xodimi va vakili sifatida *agroklasterlar* bilan shartnoma tuzmoqchiman. Mening boshqa fermerlardan farqim, hukumatning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va atrof-muhit holatini yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi sifatida suvni tejash, daraxtlarning holati va uglerod sekvestratsiyasi to'g'risida yillik hisobot berish bo'ladi.

Men zarur ishlab chiqarish resurslarini sotib olish, shuningdek, zarur bo'ladigan qo'shimcha ishchi kuchi bilan muzokaralar olib borish va ular bilan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun javobgar bo'laman. Shuningdek, men tuproqni tayyorlash, ekinlarni ekish, parvarish qilish, zararkunandalar va

kasalliklarga qarshi kurash va hosilni yig'ib olishga mas'ul bo'lib, O'zbekiston uchun Maqbul qishloq xo'jaligi amaliyoti qo'llanmasiga rioya etishga harakat qilaman.

8.2. Ko'makdosh jarayonlar

(MISOL) Buxgalteriya hisobi bo'yicha menga sherigim yordam beradi. U mazkur yo'nalishda o'qigan va ish tajribasiga ega. Murakkab savollar yoki yillik hisobot va soliq to'lovlari uchun soliq maslahatchisining xizmatlaridan foydalanaman.

Bundan tashqari, aniqlik kiritishim kerak bo'lgan har qanday qo'shimcha texnik yoki fermer xo'jaligini boshqarishga doir masalalar bo'yicha Jasilawil platformasidagi (O'zbekiston uchun Agromart, masalan) maslahatchilar guruhi bilan hamkorlik qilaman

8.2- KICHIK BO'LIM. IZOH – Yordam olish imkoniyati mavjud bo'lgan platforma:

O'zbekiston uchun

- Maslahat xizmatlari - <https://agromart.uz/en> (Agromart ilovasi)
- O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi - <https://chamber.uz/en/index>

Qoraqalpog'iston uchun

- Maslahat xizmatlari - <https://greenaral.uz/en> (Jasilawil ilovasi)
- O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi - <https://chamber.uz/en/index>

8.3. Ishchi kuchini rejalashtirish

(MISOL) O'zim va sheriklarimda mavjud ishchi kuchidan tashqari, fermer xo'jaligimda muntazam ravishda 1 nafar doimiy va 8 nafar mavsumiy xodim yollanadi. Ishga yollangan xodimlar rasmiy ro'yxatga olinadi va mehnat daftarchalari yuritiladi. Bu menga ish beruvchi sifatida ijtimoiy soliqni to'lashda davom etib, ular ijtimoiy nafaqalarni olishini ta'minlash imkonini beradi.

8.4. Infratuzilma va asbob-uskunalar

(MISOL) Fermer xo'jaligini yuritish uchun katta infratuzilma kerak emas. Texnika masalasiga kelsak, yomg'rlatib sug'orishni joriy etishni, shuningdek, daraxtlarni qayerda va qanday ekishni loyihalashda yordam berish uchun maslahatchi yolladim. Qolaversa, zarurat bo'lganda mahalliy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlardan yuk mashinasini ijaraga olaman.

8.4- KICHIK BO'LIM. IZOH - Texnik yordam olish imkoniyati mavjud platforma:

O'zbekiston uchun

- Maslahat xizmatlari - <https://agromart.uz/en> (Agromart ilovasi)
- Innovatsiyalar va texnik yordam - <http://akis.agro.uz/uz>
- Suv xo'jaligi uskunolari va maslahatlar –TOMCHI ilovasi

Qoraqalpog'iston uchun

- Maslahat xizmatlari - <https://greenaral.uz/en> (Jasilawil ilovasi)
- Suv xo'jaligi uskunolari va maslahatlar –TOMCHI ilovasi

9. Maqsadli ko'rsatkichlarni tushuntirish.

(MISOL) Daromadni rejalashtirish 200 dala ish kuni va 18 gektar yer maydoniga ega fermer xo'jaligida yiliga 54 tonna bug'doy ishlab chiqarish asos qilib olinadi. Yillik 11 070 AQSH dollari miqdoridagi taxminiy daromad O'zbekistonda 2022-yilda bozordagi bug'doy narxi (205,38 AQSH dollari/tonnasi) asosida hisoblangan. G'alladan olinadigan yillik daromaddan tashqari, ikkilamchi tovar bo'lgan bug'doy somonidan olinadigan daromadni ham hisoblab chiqdim. Har bir gektardan 400 toy hosildorlik va bir toy somon narxi 0,89 AQSH dollari ekanini hisobga olgan holda yillik 6 408 AQSH dollari ($400 \text{ toy/ga} * 18 \text{ ga} * 0,89 \text{ AQSH dollari/toy}$) miqdorida qo'shimcha daromad hisoblab chiqildi. Boshqa tomondan, operatsion xarajatlarga ekinlarni ekish va yetishtirish, mehnat, hosilni yig'ib-terib olish hamda foyda solig'i va boshqa soliqlar bilan bog'liq xarajatlar kiradi. O'tgan yil ko'rsatkichlariga asoslanadigan bo'lsak, jami operatsion xarajatlar umumiy daromadning 90% ni tashkil qiladi.

Fermer xo'jaligiga qo'shimcha investitsiya kiritish masalasiga kelsak, fermer xo'jaligimning bir gektar maydoniga o'rnatmoqchi bo'lgan yomg'ratib sug'orish tizimi o'rnatish xarajatlarini hisobga olgan holda 4000 AQSH dollarini tashkil etadi. Uskunani sotib olish va o'rnatish uchun zarur bo'lgan 4000 AQSH dollarini qoplash uchun 4 yillik kredit olaman. Bundan tashqari, mutaxassis/maslahatchi menga shimoldan esuvchi shamollarga perpendikulyar bo'lgan 500 metr uzunlikdagi chiziqli ihota daraxtzorlari uchun qator oralig'i 2 m bo'lgan qoratal daraxtlarini ekishni taklif qildi. Ular yetilib, balandligi 15 metrga yetganda, mart va aprel oylarida Qoraqalpog'istonda shamol tezligi 5 m/s bo'lishini hisobga olgan holda, hosilga zarar yetkazadigan tepaga qarab esadigan shamolga qarshi taxminan 60 m va pastga qarab esadigan shamolga qarshi 300 m himoyani ta'minlaydi. Daraxtlar ekishga kiritiladigan investitsiya miqdori ($500 \text{ m daraxt} / 2 \text{ m oraliq} = 250 \text{ daraxt} * 0,18 \text{ AQSH dollari/daraxt}$) 45 AQSH dollarini tashkil etadi. Mutaxassis, agar daraxtlarni parvarish qilishda to'g'ri amaliyotlar qo'llansa, qoratal qalamchalari yoki yog'ochlarini sotish orqali undan daromad manbai sifatida foydalanishni hisobga olgan holda ekishni taklif qildi. Mutaxassis/maslahatchining fikriga ko'ra (har bir daraxtdan yiliga 10 dona yog'och materiallari), potensial daromad manbai sifatida daraxtlar yetilgandan so'ng (4 yildan keyin) har bir qoratal kesilganda 0,15 AQSH dollari miqdoridagi konservativ narx hisobga olingan.

10. Tushumlar va daromadlilik prognozi

(MISOL)

Yillar	1	2	3	4	5	6
Hosildorlik (xo'jalikda, tonna)	17,478	17,478	17,478	17,478	17,853	17,853
O'lchov birligi uchun o'rnatilgan narx (AQSH doll /tonna)	17,478	17,478	17,478	17,478	17,478	17,478
Hosildorlik (xo'jalikda, tonna)	11,070	11,070	11,070	11,070	11,070	11,070
O'lchov birligi uchun o'rnatilgan narx (AQSH doll /tonna)	54	54	54	54	54	54
Hosildorlik (xo'jalikda, tonna)	205	205	205	205	205	205
b) Somon	6408	6408	6408	6408	6408	6408
Hosildorlik (xo'jalikda, toy)	7,200	7,200	7,200	7,200	7,200	7,200
O'lchov birligi uchun o'rnatilgan narx (AQSH doll /toy)	0.89	0.89	0.89	0.89	0.89	0.89
2) Daraxtlardan olinadigan daromad (c x d)	0	0	0	0	375	375
c) Mahsulot (kesilgan shoxlari, yog'och materiallari, mevasi)					2,500	2,500
d) O'lchov birligi narxi (AQSH doll /tonna)					0.15	0.15
B) Operatsion xarajatlar (3+4+5+6+7)	12,893	12,893	12,893	12,893	12,931	12,931
3) Ekin yetishtirish xarajatlari (e+f+g)	8,966	8,966	8,966	8,966	8,966	8,966
e) Ekish						
Yerni shudgor qilish	150	150	150	150	150	150
Ekishdan oldin yerni tayyorlash	130	130	130	130	130	130
Ekish	25	25	25	25	25	25
O'g'itlash	63	63	63	63	63	63
G'allani fermer xo'jaligiga tashish	38	38	38	38	38	38
f) Ishlab chiqarish resurslari						
Urug'lar	1,660	1,660	1,660	1,660	1,660	1,660
O'g'itlar	1,755	1,755	1,755	1,755	1,755	1,755
Pestitsidlar	638	638	638	638	638	638
Suv (sug'orish)	713	713	713	713	713	713
Uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish	350	350	350	350	350	350
Dizel	400	400	400	400	400	400
g) Yig'im-terim						
Kombayn	1,100	1,100	1,100	1,100	1,100	1,100
Somonni yig'ib presslagich (0,27 AQSH dollari/toy)	1,944	1,944	1,944	1,944	1,944	1,944
4) Tree Operational Expenses (h+i)	166	166	166	166	204	204
h) Ishlab chiqarish resurslari & parvarishlash						
Yovvoyi o'tlarga qarshi kurashish	33	33	33	33	33	33
Butash	35	35	35	35	35	35
Zararkunandalarga qarshi kurashish	40	40	40	40	40	40
O'g'itlash	58	58	58	58	58	58
i) Yig'im-terim						
Yig'ib olish (yog'och materiallari)					38	38

5) Mehnat (j+k)	2,182	2,182	2,182	2,182	2,182	2,182
j) Xodimlar	2,160	2,160	2,160	2,160	2,160	2,160
k) ish haqiga soliqlar * (12%)***	21.6	21.6	21.6	21.6	21.6	21.6
6) Amortizatsiya (l)	667	667	667	667	667	667
l) Texnika	667	667	667	667	667	667
7) Ishlab chiqarish resurslariga solinadigan soliqlar ** (m+n+o)	912	912	912	912	912	912
m) Aylanmadan olinadigan soliq (4% yoki 12%)***	350	350	350	350	357	357
n) Suv solig'i (4 AQSH dollari / m ³)***	638	638	638	638	638	638
o) Yer solig'i (4 AQSH dollari / ga)***	36	36	36	36	36	36
C) Foizlar va soliqlarni to'lashdan oldingi foyda (A - B)	4,585	4,585	4,585	4,585	4,922	4,922
D) Foizlar va kreditlarni qaytarish (8+9)	1,680	1,510	1,340	1,170	0	0
8) Kreditni qaytarish	1,000	1,000	1,000	1,000		
9) Foizlar	680	510	340	170		
E) Soliqlar (10)	218	231	243	256	369	369
10) Daromad solig'i (15%)*** [(C-D)*Soliq]	218	231	243	256	369	369
F) Sof daromad (C - D - E)	2,687	2,844	3,002	3,159	4,553	4,553

**Ijtimoiy soliq* - 12%

** *Aylanmadan olinadigan soliq* - korxonalarining yillik aylanmasi 100 000 AQSH dollaridan oshmasa, umumiy sotuvlar hajmidan 4%. Yillik tovar aylanmasi 100 000 AQSH dollaridan oshganda - 12%. Qishloq xo'jaligi yerlari uchun *suv solig'i* - m³ uchun 4 AQSH dollari miqdorida hisoblanadi. *Yer solig'i* tuproq unumdorligi va yer turiga (sug'oriladigan yoki lalmi) qarab, gektariga 4 AQSH dollari miqdorida baholanadi.

*** Prezidentning 2022-yil 31-avgustdagi 213-sonli "Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlik, innovatsion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur'atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi korxonalar, shu jumladan, fermer xo'jaliklari 2023-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvargacha qadar barcha "Ishlab chiqarish resurslariga solinadigan va aylanmadan olinadigan soliqlar", shuningdek, "Daromad solig'i" ning 50 foizini va "Ijtimoiy soliqlar"ning 1 foizini to'laydi.

11. Kapitalga bo'lgan talablar va moliyalashtirish

(MISOL)

	Umumiy xarajatlar	Yillik moliyalashtirish xarajatlari
G) Uzoq muddatli investitsiyalar	4 295	
11) Mol-mulk		
12) Inshootlar		
p) Issiqxona/parnik		
13) Texnika		
q) Shpalerlar tizimi (o'rnatish bilan birga)		
r) Traktor		
s) Traktor uskunalari		
t) Sug'orish tizimi (o'rnatish bilan birga)	4 000	17% foiz(4 yil)
14) Daraxt ekish		
u) Yerni tayyorlash	175	
v) Tahlillar (tuproq, sxema)	75	
w) Daraxtlar	45	
H) O'rta va qisqa muddatli investitsiyalar		
15) Uskunalar		
I) Dastlabki xarajatlar		
16) Ro'yxatdan o'tish		
17) Qonuniylashtirish		
18) O'qitish va malaka oshirish		
J) Kerakli umumiy kapital	4 295	
K) Yillik xarajatlar		4 295

12. Ekologik foyda va afzalliklar

(MISOL)

Yillar	1	2	3	4	5	6
L) Uglerod sekvestratsiyasi (tCO ₂)	0	0	0	0	2.5	2.5
19) Daraxtlar soni	250	250	250	250	250	250
20) Bir dona daraxtga to'g'ri keladigan uglerod sekvestratsiyasi*	0	0	0	0	0.01	0.01

* Yillik uglerod sekvestratsiyasi daraxt ekilganidan boshlab 4-yilda yetilganidan keyin va 30 yoshga yetgunga qadar hisoblanadi.

M) Suvni tejash (m^3 /sutka/ga /ha) (21 - 22)	25.53
21) Yer ustidan sug'orish usulida $[(x/y) * (1 + z) * \varphi]$	127.65
x) Ekinning kunlik evatransporatsiyasi ~	6.9
y) Sug'orish tizimini qo'llash samaradorligi ~	60%
z) Tuproq sho'rini yuvish zarurati ~	11%
φ) mm/kunni m^3 /ga ga aylantirish uchun ko'paytirgich	10
22) Yomg'rlatib sug'orish usulida $[(x/y) * (1 + z) * \varphi]$	102.12
x) Ekinning kunlik evatransporatsiyasi ~	6.9
y) Sug'orish tizimini qo'llash samaradorligi ~	75%
z) Tuproq sho'rini yuvish zarurati ~	11%
φ) mm/kunni m^3 /ga ga aylantirish uchun ko'paytirgich	10
N) Jami suv tejalishi (tomchilatib sug'orish usulida $M^* \#$ ga - m^3 /day)	25.53

~ Yordamchi ma'lumotlar 1-ilovada keltirilgan.

13. Yashash xarajatlarini qoplash uchun yetarli foyda miqdori.

	Oyiga	Yiliga
O) Yashash xarajatlari		
23) Oziq-ovqat uchun		
24) Kiyim-kechak uchun		
25) Tibbiy xarajatlar		
26) Ta'lim olish xarajatlari		
27) Boshqalar		
P) Uy-joy xarajatlari		
Q) Ijtimoiy ta'minot		
28) Sug'urta		
29) Pensiya		
R) Foizlar va soliqlar		
30) Kreditni qaytarish va foizlar		
31) Soliqlar		
S) Uy xo'jaligining jami xarajatlari (O+P+Q+R)		

1-ILOVA: Suvni tejashga oid yordamchi ma'lumotlar

1. Ekinning kunlik maksimal evatransporatsiyasi (ET_c)

Evapotranspiratsiya - bu bug'lanish va unda o'sadigan o'simliklar tomonidan transpiratsiya natijasida tuproqdagi suvning yo'qolishi. Evapotranspiratsiya ko'rsatkichi turli o'simliklar uchun turlicha, shuningdek, mavsumga qarab o'zgaradi. Sug'orish tizimlarini loyihalash uchun mavsum davomidagi maksimal evapotranspiratsiya ko'rsatkichidan foydalaniladi. Ekinlar evapotranspiratsiyasining maksimal ko'rsatkichlari Amudaryo havzasida olib borilgan tadqiqotlar asosida hisoblab chiqilgan va ma'lumot uchun quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval	
Ekin turi	ET _c (mm/kun)
Paxta	8,5
Bug'doy	6,9
Guruch	7,3
Beda	6,7
Makkajo'xori	8,5
Sabzavotlar	6,3
Qovun	7,4
Mevalar	6,0
Sorgo	7,1
Kartoshka	8,1

2. Sug'orish tizimini qo'llash samaradorligi

Sug'orish usulini qo'llash samaradorligi amalda sug'oriladigan suvning qancha qismi o'simlikka yetib borishini ifodalaydi. Foizlarda ifodalanadigan samaradorlik ko'rsatkichi qanchalik past bo'lsa, ekinning suvga ehtiyojini qondirish uchun shunchalik ko'proq sug'orilishi kerak. 2-jadvalda ma'lumot uchun turli sug'orish usullarini qo'llash samaradorligi jamlangan.

2-jadval	
Sug'orish usullari	Dalada qo'llash samaradorligi
Yer ustidan sug'orish (cheklarga bo'lib; egatlab, bostirma usulida sug'orish)	60%
Yomg'irlatib sug'orish	75%
Tomchilatib sug'orish	90%

3. Tuproq sho'rini yuvish zarurati

Barcha sug'orish suvlari tarkibida tuz mavjud. O'simlik ildizlari tuproq eritmasidan ozuqa moddalarini so'rib oladi, ammo tuzlarning katta qismi tuproq yuzida qoladi. Agar tuzlar o'simlikning ildiz zonasidan yuvilmasa, tuzlarning to'planishi tuproqda past osmotik bosim hosil qilib, bu ildizlarning normal ishlashiga to'sqinlik qiladi. O'simlik ozuqa moddalarini so'rib olish uchun qo'shimcha energiya sarflashga majbur bo'lib, bu stress, fiziologik shikastlanish va hosildorlik pastligiga olib keladi. Bundan tashqari, natriy va xlorid ko'plab o'simliklar uchun

zaxarli hisoblanadi. Tuproq sho'rini yuvish zarurati yoki tuproq sho'rini yuvish nisbati ekiningizning ildiz zonasidan tuzlarni yuvish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha suv miqdorini bildiradi. Sug'orish suvidagi tuz miqdori qanchalik yuqori bo'lsa, sho'rni yuvish zarurati shunchalik yuqori bo'ladi.

3-jadvalda sug'orish suvi sho'rli (YECw) va ekinlar uchun tuproq sho'rlanishining maksimal chegarasi (YECe) kesishgan joyda tuproq sho'rini yuvishga taxminiy talab ko'rsatkichi foizlarda ko'rsatilgan.

3-jadval Sug'orish suvining sho'rli (elektr o'tkazuvchanli) (YECw)

dS/m	0.2	0.5	0.7	1.0	1.3	1.5	2.0	2.5	3.0	4.0	5.0	6.0	7.0
0.5	9	25	39	67	108	-	-	-	-	-	-	-	-
1.0	4	11	16	25	35	43	67	100	-	-	-	-	-
1.5	3	7	10	15	21	25	36	50	67	114	-	-	-
2.0	2	5	8	11	15	18	25	33	43	67	100	-	-
2.5	2	4	6	9	12	14	19	25	32	47	67	92	-
3.0	1	3	5	7	9	11	15	20	25	36	50	67	88
3.5	1	3	4	6	8	9	13	17	21	30	40	52	67
4.0	1	3	4	5	7	8	11	14	18	25	33	43	54
4.5	1	2	3	5	6	7	10	13	15	22	29	36	45
5.0	1	2	3	4	5	6	9	11	14	19	25	32	39
5.5	1	2	3	4	5	6	8	10	12	17	22	28	34
6.0	1	2	2	3	5	5	7	9	11	15	20	25	30
6.5	1	2	2	3	4	5	7	8	10	14	18	23	27
7.0	1	1	2	3	4	4	6	8	9	13	17	21	25

Ma'lumotning ushbu ikki qismi sug'orish tizimingiz yetkazib berishi kerak bo'lgan suv hajmiga bevosita ta'sir qiladigan tuproq sho'rini yuvish zaruratini hisoblash imkonini beradi.

3.1.Sug'orish suvining sho'rli (ECw)

Birinchi, sug'orish uchun foydalaniladigan suvning sho'rlik darajasini bilishingiz kerak. Suv hamda tuproqning sho'rlanish darajasi, odatda, uning elektr o'tkazuvchanligi bilan o'lchanadi, dS/m yoki uS /sm. Suvning sho'rlanishini qo'l o'lchagich bilan osongina o'lchash mumkin.

3.2.Tuproqning maksimal sho'rlanish chegarasi (ECe)

Quyidagi jadvalda o'simliklar uchun sho'rlanishning hujjatlashtirilgan maksimal chegaralari ko'rsatilgan bo'lib, ularda hosildorlikning kutiladigan pasayishi kuzatilmaydi. Jadval bir nechta manba asosida tuzilgan va yordamchi ma'lumot sifatida xizmat qiladi.

O'simlik (umumiy nomi)	O'sish va hosilning qisqarishi boshlanadigan tuproq sho'rlanishning maksimal chegarasi (ECe dS/m)	O'simlik (umumiy nomi)	O'sish va hosilning qisqarishi boshlanadigan tuproq sho'rlanishning maksimal chegarasi (ECe dS/m)
Kichik sabzavotlar		Moyli ekinlar	
Brokkoli	2,8	Maxsar	5,3
Bryussel karami	1,8	Kungaboqar	2,3
Karam	1,8	Kunjut	7,1
Sabzi	1,0		
		Boshoqlilar	
Gulkaram	1,8	Arpa	8,0
Seldyerey	2,5	Suli	5,2
Sutcho'p	1,7	Makkajo'xori	1,7
Piyoz	1,2	Shirin jo'xori	1,7
Ismaloq	3,2	Tariq	6,0
Rediska	2,0	Sorgo	6,8
		Guruch	3,0
Sabzavotlar (Ituzumdoshlar oilasi)			
Baqlajon	1,5	Bug'doy	6,0
Qalampir	1,7	Bug'doy (yarimkarlik)	8,6
Pomidor	2,5	Bug'doy (qattiq nav)	5,9
Sabzavotlar (bodringimonlar oilasi)		Yem-xashak ekinlari	
Bodring	2,5	Beda	2,0
Handalak	2,2	Arpa	6,0
Kichik qovun	1,0	Bermuda	6,9
Oshqovoq, qishki qovoq	3,9	Beda	1,5
Qovoqcha, sukkini	4,7	Vigna (yem-xashak)	2,5
Qovoqcha (patisson)	3,2	Betaga	3,9
Tarvuz	2,0	Tulkiyuruq	1,5
		Kanareyechnik	4,6

Ildizmevalilar va tuganaklilar		Polevichka	2,0
Lavlagi, qizil	4,0	Makkajo'xori (yem-xashak)	1,8
Sarimsoq	3,9	Bug'doy o'ti, baland va uzun po'pakli	7,5
Pasternak	0,8	Bug'doy o'ti, standart po'pakli	3,5
Kartoshka	1,7		
Shirin kartoshka	1,5	Uzum va rezavorlar	
Sholg'om	0,9	Malina	1,0
Qand lavlagi	7,0	Maymunjon	1,5
		Boyzenberri	1,5
Dukkaklilar		Uzum	1,5
Loviya	1,0		
Yem uchun ishlatiladigan dukkakli o'simlik	1,6	Mevali daraxtlar	
Vigna	4,9	Bodom	1,5
Yeryong'oq	3,2	Olma	1,7
No'xat	1,5	Shaftoli	1,7
Soya	5,0	Nektarin (Shirin shaftoli)	1,6
Nut	3,0	Gilos	0,9
		Nok	1,7
Ko'p yillik sabzavotlar		O'rik	1,6
Artishok	6,1	Olxo'ri, qora olxo'ri	1,5
Sarsabil	4,1	Anor	2,7
Yalpiz		Yong'oq	1,7
Qulupnay	1,5	Xurmo	2,0
		Xitoy xurmosi	4,0
Tolali ekinlar		Anjir	6,0
Paxta	7,7		
Zig'ir	1,7	Bargli daraxtlar	
		Teraklar	4,0
		Majnuntol	4,0

